# SHARTNOMA № LM-4-04/22
# Loyixa–qiduruv va smeta ishlarini bajarish uchun

**Buxoro shahri** 16 aprel **2022 yil**

Ushbu shartnomada shartlashuvchi taraflar **«Buxorosuvqurilishinvest» DM** bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi, korxonaning amaldagi Nizomi asosida ish yurituvchi direktori **O.Qodirov** bir tarafdan va ikkinchi tarafdan "Loyixachi-ijrochi" **«Alfa Proekt Buxara» MCHJ** korxonaning amaldagi nizomi asosida ish yurituvchi raxbari **J.Qudratov** quyidagilar to'grisida ushbu shartnoma tuzdilar.

## I. ShARTNOMA MAZMUNI

**1.1.**« Loyixachi-ijrochi » 2022 yil 14 apreldagi № 65023-sonli tanlov savdolari bayoniga asosan ***«Olot tumanidagi "Soyinqorovul" mahallasi aholisini "Yulduz" nasos stansiyasidan muntazam suv bilan ta'minlash maqsadida kanalni betonlashtirish»*** obyekti ishlarining loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash va shu obyektda mualliflik nazoratini olib borishni o'z zimmasiga oladi.

**1.2.** «Buyurtmachi» ushbu bajarilgan ishlarni qabul kilishni va unga xak to'lashni o'z zimmasiga oladi.

**1.3.** "Buyurtmachi" "Loyixachi-ijrochi" loyixa rejasi bo'yicha ishni xar bir qismiga aloxida ishchi loyixaga topshirik beradi va shartnomaviy narxlar ikki tomonlama ma'kullanib amalga oshiriladi.

## II. SHARTNOMA BAXOSI

**2.1.** Ushbu shartnomaning tanlov savdolari bayoniga binoan umumiy bahosi **19 700 000 (QQS bilan) (o'n to'qqiz million yeti yuz ming) so'm** bo'lib, shundan loyiha-qidiruv ishlari bahosi **18 700 000 so'm**, mualliflik nazorati **1 000 000 so'm** deb belgilangan.

**2.2.** «Buyurtmachi» «Loyixachi-ijrochi» loyixa rejasi bo'yicha loyixaga topshirik beradi. Shartnomaviy narxlar O'zbekiston Respublikasi Davlatarxitektqurilish qo'mitasi tomonidan loyixa tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomi asosida va taklif etilgan narxlar doirasida belgilandi.

Loyixachi-ijrochi tashkilotlar tanlov asosida aniqlandi.

## III. ISHNI BAJARISH MUDDATLARI

**3.1.** Bajariladigan ishlarning umumiy muddati shartnomada ko'rsatilgan muddatlardan oshib ketmasligi lozim. Kuyidagi xollarda shartnomada ko'rsatilgan loyixani topshirish muddatlari kechiktirilishi mumkin :

- Fors – major xolatlarda **(VI).**

**3.2.** Ishning boshlanishi «14» aprel 2022 yil, tugatilish muddati «24» aprel 2022 yil.

## IV. BAJARILGAN ISHGA XAQ TO'LASH TARTIBI VA SHARTLARI

**4.1.** Shartnoma buyicha bajarilgan ishga Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi pul birligi bo'lgan so'mda xaq to'laydi.

**4.2.** Buyurtmachi, Loyixachi-ijrochi tashkilotga shartnoma g'aznachilikda ro'yxatga olinganidan so'ng, shartnomada joriy yil uchun rejalashtirilgan summaning 30 % (**5 910 000** so'm) miqdorida oldindan avans to'lovini amalga oshiradi.

**4.3.** Ish yakunida (loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanib, ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng) "Buyurtmachi" tomonidan "Loyixachi-ijrochi" tashkilotga 2022 yil davomida joriy yil uchun moliyalashtirilgan mablag' to'liq o'tkazib beriladi.

**4.4.** Shartnomaning 4.3- bandlarida kursatilgan majburiyatlar buyurtmachi Moliya vazirligi tomonidan mablag' ajratilishiga karab bajaradi.

## V. TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**5.1.** Loyixachi-ijrochining xuquq va majburiyatlari :

a) Buyurtmachi tomonidan berilgan topshirik asosida loyixa-smeta xujjatlari tayerlanadi.

b) Tayorlanayotgan loyixa-smeta xujjatlarning amaldagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi, narxlarni tug'ri shakllanishi va belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

v) Ish jarayonida vujudga kelgan ishga ta'luqli muammolar buyicha o'z vaqtida "Buyurtmachi"ni ogoxlantiradi va yuzaga kelgan muammo o'zaro kelishgan xolda xal etiladi.

g) Agarda Loyixachi-ijrochi tomonidan tayyorlangan loyixa-smeta xujjatlarida bajariladigan ishlar to'liq aks ettirilmasa ushbu ishlar bo'yicha talab qilinadigan mablag loyixachi - ijrochi tomonidan to'liq qoplanadi.

**5.2.** Loyixachi-ijrochi tomonidan smeta xujjatlari tayyorlangandan so'ng buyurtmachiga quyidagi tartibda topshiradi.

## TARAFLARNING MANZILI VA TO'LOV REKVIZITLARI

**Buyurtmachi:**
**"Buxorosuvqurilishinvest" DM**
**Manzil:** Buxoro sh. Shirbudin ko'chasi, 12 uy
**Tel/faks:** 225-15-40, 225-24-53
**x/r:** 10002186006401704980517000 2
**INN**: 203 269 804 **OKONX:** 69000
G'aznachilik bo'lim nomi: Buxoro viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi
**x/r** 23402000300100001010
**INN:** 201 122 919 **MFO:** 00014 **OKONX:** 22100
RKS Toshkent shaxri

**Direktor:** **O.Qodirov**

***Boshyuriskonsult*** ***А.Маматкулов***
*Diplom В №180620 11.07.2004*

***Moliyalashtirish va shartnoma munosabatlari bo'limi*** ***B.Qudratov***

**Loyihachi:**
**"Alfa Proekt Buxara" MCHJ**
**Manzil:** Buxoro sh. Namozgox ko'ch.5/30 uy
**Tel/faks:** +998 (93) 453 44 04
**INN:** 306418494
**MFO:** 00862
**r/s 2020 8000 5050 7629 9001**

**Direktor:** **J.Qudratov**